



**UNODC**

United Nations Office on Drugs and Crime



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**

**X. SULAYMONOVA NOMIDAGI  
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI**

**BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI  
GIYOHVAND MODDALAR VA JINOYATCHILIK BO‘YICHA  
BOSHQARMASINING MARKAZIY OSIYODAGI  
MINTAQAVIY VAKOLATXONASI**

**“Xalqaro hamkorlikning sud ekspertizani takomillashtirish  
va rivojlantirishdagi o‘rni” mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-amaliy  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

---

**CONFERENCE MATERIALS**

**of the international scientific and practical conference on the topic  
“THE ROLE OF INTERNATIONAL COOPERATION IN  
IMPROVING AND DEVELOPING FORENSIC SCIENCE”**

**18-19-aprel**

**Toshkent – 2024**

## **YO‘L-TRANSPORT HODISALARI BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN ISHLARNI KO‘RISHDA TAYINLANADIGAN LOK-BO‘YOQ MATERIALLARI VA QOPLAMALARI EKSPERTIZASINING AHAMIYATI**

***Talipova Iroda Ermaxamatovna***

*Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi” laboratoriyasi  
yetakchi eksperti*

***Samadova Farangez Zayniddinovna***

*Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi  
eksperti*

Hayotimizni transport vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Avtomashina ilgari zamonlarda hashamat hisoblangan bo‘lsa, bugungi kunga kelib harakatlanish vositasi, kundalik ehtiyojga aylandi, odamlarning og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qilish va boshqa afzalliklari bilan tobora hayotimizga singib bormoqda. Biroq, avtotransport vositalarining qator afzalliklariga qaramay, insonga ba’zan jiddiy kungilsizliklar keltirishi mumkinligini ham unutmashimiz kerak. Jumladan harakatlanish qiodalarini bilmaslik yoki ularga rioya qilmaslik, mast holda mashina boshqarish, atomashinalarning texnik nosozligi ko‘pincha shunday ko‘ngilsizliklarni sababchisi bo‘ladi. Bularning oldini olish, har bir harakatlanish ishtirokchisining xavfsizligini ta’minlash asosan Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati zimmasiga yuklangan bo‘lsa-da, biroq bu jarayonda har bir fuqaro namunali bo‘lishi darkor.

O‘zbekiston Respublikasida yo‘l-transport hodislari bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar oldingi yillarga qaraganda kamroq sodir bo‘lsa-da, ammo ushbu turdagi jinoyatlar sodir bo‘lmoqda. Ma’lumki yo‘l-transport hodislarining oqibati jiddiy ya’ni uning natijasida fuqarolar halok bo‘lgan yoki ularning badaniga shikast yetkazilgan hollarda jinoyat tarkibi mavjud bo‘ladi. Biroq har bir yo‘l-transport hodisasi bo‘yicha tergov yuritilganida haydovchining aybdor yoki aybdor emasligi aniqlanishi, yo‘lning holati yo‘lovchining yo‘l qoidasini buzgan yoki buzmagani va avtomobilning texnik holati tahlil qilinishi lozim. Yo‘l-transport hodislari tufayli hamma vaqt ham jiddiy oqibatlar vujudga kelmaydi va ular jinoiy xususiyatga ega bo‘lmaydi. Ba’zan ular haydovchi, yo‘lovchi, avtomobilning texnik holati, yo‘lning sifatiga bog‘liq bo‘lmagan holda ham ro‘y berishi mumkin. Hodisaning ro‘y berish jarayonining noaniq va murakkabligi sababli dastlab ayb kimda ekanligini tezda

aniqlash anchagina mushkul. Bular esa faqat dalillar yordamida ekspertizalar asosida isbotlanishi shart.

Yo‘l-transport hodisasining barcha turlariga tatbiq etiluvchi, hodisani tegishli mutaxassislar, ya‘ni fan, texnika va hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxslar tomonidan o‘tkazilgan ilmiy-texnikaviy tekshirishni ekspertiza deb hisoblash qabul qilingan.

Ekspertizani o‘tkazish bilimning turli sohalariga oid juda xilma-xil axborotlardan foydalanishni nazarda tutadi. O‘rnatilgan qoidaga ko‘ra, u yo‘l-transport hodisasining moddiy izlarini tadqiq etishning yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Ekspertizani tayinlash paytiga kelib, tergovchi yoki surishtiruvchi odatda ish yuzasidan to‘plangan ma‘lumotlarga, qonunda nazarda tutilgan turli tergov harakatlarini, surishtiruv va qidiruv ishlarini o‘tkazish natijasida protsessual yo‘l bilan olingan materiallarga va ko‘rsatuvlarga ega bo‘ladi. Shunga muvofiq tergovchida, surishtiruvchida yo‘l-transport hodisasini muayyan baholash shakllanadi. Lekin bu baho yuqori malakali ekspert tomonidan o‘tkazilgan ekspertiza natijalari tufayli tergov va surishtiruv ishi bo‘yicha protsessual qimmatga ega bo‘lishi mumkin.

Tergovchi, surishtiruvchi yo‘l-transport hodisalari sodir etilganda aynan qanday ekspertizalarni tayinlash va o‘tkazish maqsadga muvofiqligi, uni o‘tkazish natijasida qanday dalillarga ega bo‘lishi to‘g‘risida ma‘lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Shu maqsadda X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazida aynan yo‘l-transport hodisalari bo‘yicha o‘tkaziladigan lok-bo‘yoq materiallari va qoplamalari ekspertizasi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirib o‘tamiz.

Yo‘l-transport hodisalari oqibatida odamni bosib yoki urib ketish, tunash, o‘g‘irlik va transport vositalarining bir-biri bilan o‘zaro to‘qnashishi kabi ko‘pgina jinoyatlarni tekshirishda lok-bo‘yoq materiallari va qoplamalarining ashyoviy dalil sifatidagi o‘rni alohida ahamiyatga ega. Bu kabi ishlar bo‘yicha tayinlanadigan loq-bo‘yok materiallari kriminalistik ekspertizaning vazifasi ish holatlari bilan belgilanadi. Tergov organlarini ko‘pincha buyumlarning bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lgani qiziqtiradi, chunki bu jinoyat vaziyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Lok-bo‘yoq materiallari va qoplamalari kriminalistik tadqiqoti materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi doirasida o‘tkaziladi. Bunda kompleks uslublar o‘rnini bosuvchi yoki bir-birini to‘ldiruvchi usullar ko‘llaniladi. Lok-bo‘yoq materiallari va qoplamalari ekspertizasi obyektlari: mazkur ekspertizaning obyektlari hisoblangan lok-bo‘yoq mahsulotlari turli materiallardan tayyorlangan predmetlarni tashqi ta‘sirdan himoya qilish va yuzasini pardoqlash uchun qo‘llaniladi. Jumladan, metallardan yasalgan buyumlarni zanglashdan,

yog'ochdan yasalgan buyumlarni chirishdan asraydi va plastmass buyumlarga tashqi chiroy beradi. Lok-bo'yoq materiallarini tayyorlashda organik va noorganik moddalar asosiy tarkibiy komponentlari hisoblanadi.

Lok-bo'yoq materiallari va qoplamalari ekspertizasining tadqiqoti obyektlari bo'lib bo'yalgan buyum qoplamasi va undan tushib qolgan deb taxmin qilingan lok-bo'yoq zarralari;– kelib chiqishi, saqlanishi va tayyorlanishi jihatdan bir xil bo'lgan deb taxmin qilingan lok-bo'yoq materiallarining aniq hajmi;– aniq lok-bo'yoq materialini tayyorlashda ishlatiladigan lok-bo'yoq materiallarini tashkil qiluvchi alohida komponentlari;– o'zaro ta'sir izlariga ega bo'yalgan buyumlar.

Lok-bo'yoq materiallari va qoplamalari kriminalistik ekspertizasi quyidagi savollarga javob beradi:

– obyektدا (buyum) lok-bo'yoq materiallarining yoki qoplamalarining zarralari (umuman yoki faqat ma'lum bir turi) bormi?

– topilgan modda lok-bo'yoq materiallari yoki qoplamalariga (umuman yoki faqat ma'lum bir turiga) taalluqlimi?

– tekshirishga taqdim kilingan lok-bo'yoq materiallari yoki qoplamalari namunalari umumiy tur yoki guruhga mansubmi?

– muayyan predmetlar o'zaro ta'sirlashishda (kontaktda) bo'lganmi?

– muayyan obyektga lok-bo'yoq qoplamasi qanday usulda surilgan (zavod sharoitidami yoki qo'ldami)?

– buyum yuzasi qayta bo'yalganmi?

Materiallarni ekspertizaga tayyorlashda ekspertizaning samarali o'tkazilishi uchun jinoyatga tegishli bo'lgan ashyoviy dalillarni to'g'ri olinishiga hamda surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning zarur materiallarni to'liq to'plashiga bog'liq. Surishtiruvchi, tergovchi va sudya ashyoviy dalillarni dastlabki o'zgarmagan holatda ekspertga taqdim qilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularni olishda va ekspertizaga yo'llashda quyidagi talablarga rioya qilish zarur:

– voqea joyidan topilgan ashyoviy dalillar - bo'yoq parchalarini yig'ishtirib, qog'oz paketga o'rash va ularni sinishiga, bir-biridan ajralishiga yo'l qo'ymaslik (ular bo'yoq parchalarining bir butunga taalluqliligini aniqlash bo'yicha trasologik tekshirishlar o'tkazish uchun kerak bo'lishi mumkin);

– ifloslangan bo'yalgan buyumlar olinganda, ulardagi eski izlar yo'qolmaslik va jinoyatga aloqasi bo'lmagan yangilari hosil bo'lmaslik choralarini ko'rish;

– bo'yalgan predmetlarning lok-bo'yoq qoplamasi shikastlangan joyi hamda bo'yoq tekkan kiyim va boshqa obyektlarni qo'shimcha mexanik ta'sirdan va turli yot zarralar tushishidan asrash;

– bo‘yoq izlari bor deb taxmin qilinganda, birinchi navbatda ashyoviy dalillarda bo‘yoq izi bor - yo‘qligini tekshirish zarur, so‘ngra ushbu dalillarni sud-tibbiy va boshqa ekspertizalarga jo‘natish lozim;

– tekshirish uchun bo‘yalgan yuzalardan namunalar iloji boricha o‘sha lat yegan, o‘zaro ta’sir sodir bo‘lgan joydan olinishi kerak. Bynday vaziyatlarga alohida ahamiyat berish kerak, chunki transport vositalari detallariga keyinchalik sepilgan bo‘yoq zavod bo‘yog‘i bilan rangi bir qarashda bir xil bo‘lsa, ular qayta bo‘yalganligi sezilmaydi va ushbu detallardan olingan bo‘yoq namunalarini tekshirish salbiy natijalar va asossiz xulosa berishga olib keladi;

– lok-bo‘yoq qoplamalari, alohida bo‘yalgan buyumlar, bo‘yoq dog‘i bo‘lgan kiyim – har biri alohida oq qog‘ozga o‘ralib ekspertizaga taqdim etiladi. Ushbu talablarga rioya qilmaslik ekspertiza o‘tkazishning imkoni yo‘qolishiga, ba’zan esa noto‘g‘ri natijalarga olib keladi.

Tergovchi (surishtiruvchi, sud) ekspertizaga ashyoviy dalillarni yuborayotganda qaysi obyekt tekshirilishi lozimligini aniq ko‘rsatishi shart, masalan, transport vositasining detali, sindirilgan eshik, bo‘yalgan deraza yoki alohida tashkil qiluvchi komponentlardan (bog‘lovchi, pigment) tayyorlangan lok-bo‘yoq materialining muayyan massasining namunalarni. Ko‘pincha, ashyoviy dalil sifatida yuzasi bo‘yalgan obyektlar (transport vositalari yoki ularning alohida detallari, qurilish konstruksiyalari, qurollari va asboblari) va ulardan qolgan lok-bo‘yoq zarralari yoki boshqa buyum yuzasidagi bo‘yoq izlari taqdim etilishi mumkin. Ba’zan bo‘yalgan buyum (predmet) o‘rniga tekshirish uchun namuna sifatida uning lok-bo‘yoq qoplamasidan qirindi yoki boshqa yo‘l bilan ko‘chirib olingan parchalari taqdim etiladi, ammo bu savolni aniq yechish imkonini kamaytiradi. Olingan namuna nafaqat lok-bo‘yoq qoplama to‘g‘risida, balki uning ostidagi predmetning xossalari, qoplamaning tarkibi va tuzilishi bo‘yicha bir xilligi, qoplama ustida bo‘lgan boshqa moddalar haqida ma’lumot berishi kerak.

Ekspertiza masalalarini muvafaqiyatli yechish uchun tekshirishga ashyoviy dalillar bilan birga taqqoslash uchun bo‘yalgan buyumdan lok-bo‘yoq materialidan namunalar ham taqdim etilishi zarur. Tadqiqot uchun bo‘yalgan predmetni ishlatish sharoitlari to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlar ham muhimdir:

– bo‘yalgan buyumni saqlash sharoitlari va qoplamalarni tozalash, yuvish texnologiyasi;

– bo‘yalgan buyumni ishlatilishi natijasida yuza sathining ifloslanish tabiati (masalan, transport vositasining yuki tabiatini, yo‘lning o‘ziga xos sharoitini);

– bo‘yalgan buyum yuzasini ta’mirlash ishlari (vaqti, ta’mirlash turi, qo‘llanilgan materiallar va asbob-uskunalar).

Ko'p hollarda ekspertizaga taqqoslash tadqiqotlari o'tkazish uchun bo'yalgan buyum yoki avtotransport vositalari detali emas, balki ulardan qirib olingan bo'yoq qirindilari taqdim etiladi. Lekin, qirindi olinganda taqqoslash uchun zarur bo'lgan belgilar yo'qolishi mumkin. Bo'yalgan buyum lok-bo'yoq qoplamasining o'ziga xos belgilari faqat bo'yalgan buyumning katta miqdordagi sathini tadqiq etgandagina namoyon bo'ladi va samarali natija beradi. Ekspertizaga qirindi taqdim etilganda uni tadqiq etishda o'ziga xos xususiy belgilarini topish imkoniyati bo'lmagan holatlarda, ekspertlar o'z xulosalarida qo'yilgan masalalarni qat'iy ravishda hal qilish mumkin emasligini va obyektlarning o'xshashligini qat'iy ravishda isbotlay olmasliklarini taakidlaydilar. Ushbu holatlarning oldini olish maqsadida ekspertga ekspertiza tadqiqotlari uchun namunalar olishga bo'yalgan buyumlarning aynan o'zini taqdim etish tavsiya etiladi.

Ekspertiza amaliyotida lok-bo'yoq qoplamasining rangni aniqlash va uni taqqoslash ko'pincha ranglar katalogi («Kriminalisticheskiy opredelitel sveta») yordamida olib boriladi. Hozirgi vaqtda ekspert xulosalarini ilmiy asoslanganlik darajasini oshirish va holisonaligini ta'minlash maqsadida mikrospektrofotometrik usulidan keng foydalaniladi. Ekspertiza masalalarini yechish uchun esa lok-bo'yoq qoplamalarini morfologik belgilarini o'rganish ahamiyatlidir. Lok-bo'yoq qoplamalarini tashqi va ichki tuzilishini tadqiq etishda optik va elektron mikroskopik usullaridan foydalaniladi. Mikroskopik tadqiqot orqali lok-bo'yoq qoplamaning qalinligi, qavatlarining soni, adgeziyasini aniqlash orqali uni standart yoki qo'lbola usulda bo'yalganligini aniqlash mumkin. Qavatlarining soni standart texnologik bo'yalishga mos kelmaganda bu qoplamalar qo'lbola usulda qayta bo'yalgan hisoblanadi.

Hodisa sodir bo'lgan joylarda LBQ zarrachalarini aniqlash – bo'yalgan buyumlarning hodisa joyidagi boshqa buyumlar bilan ta'sirlashishi mumkin bo'lgan joylarida amalga oshiriladi:

- YTH bo'yicha ishlarda – transport vositalarining va ular ta'sirlashishi mumkin bo'lgan buyumlarning (daraxt, stolba, qurilish konstruksiyalari, jabrlanuvchilarning kiyimlari va h.k.) sirtida, shuningdek yo'l qoplamasida;
- turli to'siqlarni (eshik, oyna va sh.k.) buzish bo'yicha ishlarja – buzish qurollari izlarida, taxmin qilinayotgan buzish qurollari sirtida, buzilgan obyektlarning qismlarida (masalan, xonaning poli) va h.k.

LBQ zarrachalarini hodisa joyini ko'zdan kechirish tadbirini o'tkazishda tergov-tezkor guruhi a'zolarining harakatlari ta'siriga tushishi mumkin bo'lgan joylardan – yo'l qoplamasi va xona polidan qidirishdan boshlash lozim. DBQ zarrachalarini izlash kunning yorug' vaqtida yoki yetarlicha sn'iy yorug'likda

kamida 8 martagacha kattalashtiruvchi lupa yordamida amalga oshiriladi. Keng maydonlarda ishlashga to‘g‘ri kelganda va zarurat tug‘ilganda kichik hajmli chang-yutgichdan (пылесос-автомобильный) foydalanish tavsiya qilinadi.

LBQlarning aniqlangan zarrachalari hodisa joyini ko‘zdan kechirish bayonnomasida, batafsil, rangi (ko‘p qatlamli zarrachalarning har bir qatlami rangi), soni, lokallashishi hamda iz tashuvchi buyumdagi zarrachalar aniqlangan sohalar ko‘rsatilib qayd etiladi. Shuningdek, yuqoridagi xususiyatlardan mumkin bo‘lganlari (lokallashishi hamda iz tashuvchi buyumdagi zarrachalar aniqlangan sohalar) chizmalarda ko‘rsatiladi va fotosuratga (video tasvir) olinadi. LBQ (LBM) zarrachalarining iz tashuvchi obyekt bilan o‘zaro ta’sirlashish xususiyatlari qayd etiladi. Aniqlangan zarachalar preparal ignalar, skalpel, pinsetlar yordamida, LBQ zarrachalarining butunligi buzilmaydigan tarzda olinadi (kelgusi tadqiqotlar uchun) va qog‘oz yoki polietilen paketchalarga o‘rab-joylashtiriladi. LBQ zarrachalarini olish yoki o‘rab-joylashtirish uchun yopishqoq lentalar (skotch) yoki daktiloskopik tasmalardan foydalanish mumkin emas, chunki bu holda LBQ zarachalarining shakli va kimyoviy tarkibi o‘zgarishi, ular ishib qolishi mumkin.

Turli buyumlarda LBQ qatlamlari aniqlanganda – ularni iz qabul qiluvchi obyekt yoki sirtidan ajratish mumkin emas: hodisa joyidan bunday buyumlarning o‘zi olinadi (agar imkoni bo‘lsa) yoki bunday buyumlarning kerakli qismlari olinadi. LBQ qatlamlarini iz tashuvchi obyekt yoki uning bir qismidan alohida ajratib olish quyidagi holatlardagina mumkin:

- iz tashuvchi obyekt yoki uni bir qismini olishning iloji bo‘lmasa;
- aniqlangan mikrozarrachalarni transportirovka paytida yo‘qotilishi xavfi bo‘lganda.

Transport vositasining (TV) sirtidan LBQ zarachalarini aniqlash yetarlicha yorug‘likda (tabiiy yoki sun‘iy) kamida 8 martagacha kattalashtiruvchi lupalar yordamida hamda TVdagi mavjud shikastlanishlar qayd etilib amalga oshiriladi, bunda aniqlangan izlarning statik yoki dinamik ekanligi, ularning shakli, o‘lchami, soni, yo‘nalishi, topografiyasi, ulardan yo‘l qoplamasiga bo‘lgan masofalar qayd etilishi lozim.

Izlarning hosil bo‘lish mexanizmi aniqlanib, qayd etilib, tadqiqot qilinib va belgilari baholangandan so‘nggina – hodisa joyidan qatlanish izlari olinishi mumkin. shu bilan birga, aniqlangan shikastlanish sohasiga qo‘shni bo‘lgan (begona LBQ qatlamlari mavjud bo‘lmagan) joylardan ham LBQ namunalari olinadi.

Taxminiy mexanizm hali noma’lum bo‘lgan YTH bo‘yicha kelgusi identifikatsion tadqiqotlarni o‘tkazish uchun – namunalarni olish va o‘rab-joylashtirish, TVning har bir olinuvchi detallari (o‘ng va chap qanotlar, barcha eshiklar va h.k.) uchun alohida amalga oshiriladi. Taqqoslash uchun namunalarni

LBQ bo‘lakchalarini (parchalari) qatlamli ko‘chirish yoki skalpel bilan qirib olish yo‘li bilan, o‘lchami 10...20 mm<sup>2</sup> va undan kattaroq sohalardan olish tavsiya qilinadi.

Buzish qurolining izlari mavjud bo‘lgan obyektlarda begona LBQ zarrachalarini izlash vizual tarzda va 90 martagcha kattalashtiruvchi mikroskop yordamida bajariladi. Bunda begona LBQning qatlamlangan zarrachalarini qidirish begona tabiatli qatlamlarni qidirish bilan bir qatorda amalga oshiriladi.

Tadqiqotga keltirilgan kiyimlarni ko‘zdan kechirish ham lupa yoki 90 martagacha kattalashtiruvchi mikroskop yordamida, yetarlicha yorug‘likda va oq fonda (oq qog‘oz) o‘tkaziladi. Bunda LBQ qatlam-izlarining mavjudligi, ularning lokallashishi (iz qabul qiluvchi obyektida izning qat‘iy joylashishi va joylashgan joyi) va topogrfiyasiga (iz elementlarining joylashishi) e‘tibor qaratiladi, aniqlangan iz va moddalar iz hosil qiluvchi obyekt qismlarining (TVning bo‘yalgan bamperi, yoritkich fara xalqasi, radiator panjarasi va h.k.) tuzilish xususiyatlarini aks ettirishi hal qilinadi, izlarning hosil bo‘lish mexanizmi, shuningdek bu izlarning kiyimdagi boshqa izlar va shikastlanishlar (yirtilish, kesilish, ishqalanish izlari va h.k.) bilan o‘zaro joylashishi aniqlanadi.

Ta’kidlash joizki, jabrlanuvchi kasalxonaga yoki morgga jo‘natilganda, uning kiyimlari qisqa muddatlarda olinishi lozim. Kiyim predmetlari alohida holda o‘rab-joylashtirilishi lozim.

LBQning izlari aniqlanganda va ularni qayd etishda, tegishli tergov harakatining bayonnomasida ularni to‘g‘ri aniqlash, ta’riflash va tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. LBQning barcha turdagi izlarini qatlamlanish izlari va ajralish izlariga bo‘lish mumkin.

LBM, LBQ va BBlar kriminalistik tadqiqotlari ko‘p bosqichli va muayyan ketma-ketlikda o‘tkaziladigan jarayon hisoblanadi. Har bir bosqich o‘ziga xos funksiyalarni bajaradi hamda oraliq vazifalarni bajarilishini ta’minlaydi. Bu jarayonda to‘rtta asosiy bosqichlar ajratib ko‘rsatiladi:

- 1) tayyorgarlik bosqichi, 2) tahliliy bosqich, 3) taqqoslash bosqichi,
- 4) tadqiqotlar natijalarini baholash (sintez) va yakuniy xulosalarni shakllantirish.

#### 1. Tayyorgarlik bosqichi

Ekspertiza tadqiqotlari vazifalarini va ularni amalga oshirish yo‘llarini aniqlash. Tayyorgarlik bosqichida ekspert ekspertiza tayinlash haqidagi qaror (ajrim) va boshqa dastlabki materiallar bilan tanishadi, ekspertiza vazifalarini aniqlashtiradi, tadqiqot obyektlari va taqqoslash uchun namunalarni (materiallar) dastlabki ko‘zdan kechiradi, ularning tadqiqotlar uchun yaroqliligini hamda qo‘yilgan savollarga javob berish uchun yetarliligini aniqlaydi, ekspert tasmollarini



ishlab chiqadi va ilgari suradi, sud ekspertizasini o'tkazish uchun zarur tadqiqotlar rejasini tuzadi, kerakli metodlar va metodlar guruhi yoki an'anaviy metodikaini tanlaydi.

Agar ekspertiza vazifalari (ekspertlar oldiga qo'yilgan savollar) noaniq shakllantirilgan bo'lsa (masalan, turlicha talqin etiladigan bo'lsa) ekspert, ekspertiza tayinlagan shaxs (organ)dan ularni aniqlashtirib olishga, shuningdek qo'shimcha materiallar taqdim etilishini so'rab iltimosnoma kirtishga haqli (O'zbekiston Respublikasi JPKning 68-moddasi).

Aynanlikni aniqlash bo'yicha savol qo'yilganda ekspert, o'ziga taqdim etilgan ish materillarida tekshirilayotgan obyektning individual-aniq ta'rifi (tushunchasi) mavjudligiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Agar bunday obyekt bo'yalgan buyum bo'lsa, uni alohidalashtirish mushkul ish emas. Biroq, tadqiqot obyektlari sifatida suyuq yoki to'kiluvchan LBMlar bo'lsa, tadqiqot jarayonida bir qator qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin. Bunday holda, tergovchi tomonidan tadqiqot obyektining vujudga kelishidagi (shakllanishi) hamda uning ko'rilayotgan ishdan oldingi holatidagi (saqlashishi, ishlatilishi) o'ziga xos xususiyatlarni, shuningdek, bu obyektning jinoyat sodir etish jarayonida qo'llanilishi yoki ishlatilish xususiyatlarini (masalan, qismlarga aralishi) inobatga olgan holda ta'rif berilishi zarur bo'ladi. Tekshirilayotgan obyektning fazoviy yoki sifatliy xususiyatlari haqida tegishli ma'lumotlar bo'lmaganda ekspert, bu kabi qo'shimcha ma'lumotlarni ekspertiza tayinlagan organdan (shaxs) so'rab olishi lozim, chunki aks holda vazifa to'liq hal etilmasligi mumkin. LBM, LBQ va BBlarning kriminalistik ekspertizalari oldiga savollar qo'yilishi masalasida oxirgi vaqtlarda yetarli muammolar mavjud emas.

Ekspertiza tayinlash haqidagi qarorda (ajrim) qo'yilgan savollarni o'rganishda, tadqiqotga taqdim etilgan obyektlar ekspertiza tayinlash haqidagi qarorda (ajrim) ko'rsatilganiga mos kelishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Tayyorgarlik bosqichida ekspertizaga taqdim etilgan materiallarning tegishli tadqiqotlarni o'tkazish va qo'yilgan savollarga aniq javob berish uchun yetarliligi tekshiriladi. Material yetarli bo'lmasa ekspert ekspertiza tayinlagan shaxsga (organ) ularni to'ldirishni so'rab iltimosnoma kiritadi. Agar iltimosnoma qondirilmasa, bu holat xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risida hujjat tuzishga asos bo'ladi<sup>3</sup>. Tadqiqotlarga bo'yalgan buyumlarning o'zi emas, balki LBQ namunalarini (qirindilar) taqdim etish LBM, LBQ va BBlar kriminalistik ekspertizalariga oid tadqiqotlarni samarali o'tkazishda bir muncha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Shuningdek bunday holatlar ekspertlar tomonidan xatolarga yo'l qo'yishga olib kelishi mumkin. Buning sababi tergovchi tomonidan namunalarni noto'g'ri olish bo'lishi ham mumkin. Undan tashqari, LBQ namunalari bilan tadqiqotlar

o'tkazishda, identifikatsiya qilinishi lozim bo'lgan obyektning bunday namunalarini tekshirish uchun sud-trasologik ekspertizalarini o'tkazishning imkoni bo'lmaydi.

LBM, LBQ va BBlarning tadqiqotlarida iz tashuvchi obyektlar sirtini bevosita tadqiqotlari samarali bo'lishiga qaramasdan, ekspertlar juda ko'p holatlarda izlarning namunalari va qirindilari bilan ishlashlariga to'g'ri keladi. Bunday holat ko'pincha, tadqiqot obyektlarini ekspertiza muassasasiga keltirib bo'lmashligi bilan tushuntiriladi. Bunda ekspert ish materialari bilan chuqurroq tanishishi va tanlangan namunalarni atroflicha baholashi talab etiladi. Masalan, juda ko'p hollarda tergovchilar transport vositasi LBQsini, aynan iz hosil qiluvchi obyekt bilan ta'sirlashgan sohalardan emas, balki boshqa sohalardan oladilar. Ekspert esa, buyumni bo'yash texnologiyasi va ishlatiladigan materiallarning assortimentini oldindan bilgani uchun, tergovchiga ekspertiza uchun namunalarni obyektning aynan qaysi sohasidan qay tartibda olishi haqida amaliy yordam ko'rsatishi mumkin.

Qo'shimcha materiallar yoki namunalar so'rab iltimosnoma kiritish tadqiqotlar o'tkazish uchun zarur metodik sharoitlarga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, mikrozarrachalari iz tashuvchi obyekt sirtida mustaxkam mexanik aloqada bo'lgan LBM va LBQlar qatlamlanish izlarining substansional xususiyatlarini tekshirishda ekspertga, nazorat-namunalari – ish tashuvchi obyektning iz moddasi bilan ifloslanmagan namuna materiallari (moddalari) zarur bo'ladi.

Tayyorgarlik bosqichida ekspert (ekspertlar komissiyasi) ekspertizaga taqdim etilgan obyektlarning ekspertiza tayinlash haqidagi qarorda (ajrim) ko'rsatilganiga miqdor jihatdan ham mos kelishini tekshiradilar va zarur bo'lsa iltimosnoma kiritadilar.

Ashyoviy dalillarni dastlabki ko'zdan kechirish – ularni boshqa obyektlardan farqlaydigan belgilarini aniqlash va ta'riflash hamda ularni individallashtirish maqsadida ham o'tkaziladi. Bu esa nafaqat ekspertga, balki tergovchi yoki sudlarga ham kelgusida, masalan, sud muxokamasida tadqiqot obyektlarini ilgari tadqiqi qilingan boshqa obyektlardan farqlashga imkon beradi. Aynan shu maqsadlarda tadqiqot obyektlarining umumiy ko'rinishi va ularning markirovka belgilari (masalan, LBM yoki LBQ izlari bo'lgan kiyimlarga ekspertiza soni (raqami) ko'rsatilgan markirovka yopishtiriladi) fotosuratga olinadi.

Agar ekspertizaga taqdim qilingan tadqiqot obyektlari o'rab-joylashtirilgan bo'lsa, ko'zdan kechirishni boshlashdan oldin ekspert, o'ramning butunligi va protsessual qoidalarga binoan bajarilganligini tekshirishi lozim (tadqiqot obyektining o'rami uning butunligini, ishonchliligini va saqlanishini, shuning iz hosil qiluvchi va iz qabul qiluvchi obyektlarning o'zaro ta'sirlashib ketmasligini ta'minlashi, o'ramni buzmasdan obyektga ta'sir qilish imkonini cheklashi lozim).

O‘ramning germetikligi buzilganligi yoki yuqoridagi talablarga mos kelmasligi aniqlansa ekspert, xulosa berishning iloji yo‘qligi to‘g‘risida hujjat tuzishi mumkin.

Ekspertiza tadqiqotlari obyektlari haqidagi ma‘lumotlarni o‘rganish. Aniq vazifalarni hal qilish tekshirilatyogan obyektlarga va ularning o‘zaro ta’sirlashishi mexanizmiga tegishli va kerakli ma‘lumot bera oladigan belgilarni aniqlash, o‘rganish va baholash bilan bog‘liq. Bu maqsadlar uchun obyektlarning tekshirilayotgan hodisaga nisbatan hosil bo‘lishi, saqlanishi (ekspluatsiya), foydalanilishi va o‘zaro ta’sirlashishi sharoitlariga oid bo‘lgan hamda ish materiallarida mavjud ma‘lumotlar, shuningdek hodisa sodir bo‘lgandan so‘ng to ekspertiza tayinlanguncha o‘tgan vaqt oralig‘idagi ushbu obyektlarda yuz bergan o‘zgarishlarga oid ma‘lumotlar xizmat qiladi.

Bo‘yalgan buyumlarga nisbatan yuqoridagi ma‘lumotlar quyidagilardan iborat:

- bo‘yash usuli — standart (zavodda bajarilgan) yoki nostandart (ustaxnoda, uy sharoitida);

- tekshirilayotgan buyum sirtining alohida sohalari (detallari) to‘liq yoki qisman bo‘yalganligi haqidagi ma‘lumotlar;

- buyumni dastlabki yoki qayta bo‘yalishida ishlatilgan materiallar haqidagi ma‘lumotlar;

- bo‘yash texnologiyasi (yoki usuli) haqidagi ma‘lumotlar (masalan, sochish, mo‘yqalam yordamida, botirib olish va h.k.);

- buyumni bo‘yashning taxminiy yoki aniq sanasi haqidagi ma‘lumotlar;

- bo‘yalgan buyumni saqlash sharoitlari va bo‘yoq qoplamasiga nisbatan qilingan munosabatlar (masalan, maxsus yuvish, tozalash, sayqalash vositalarini ishlatish holatlari) haqidagi ma‘lumotlar;

- tekshirilayotgan buyum sirtini ifloslantiruvchi ekspluatatsiya sharoitlari (masalan, transport vositasi yordamida tashilayotgan bo‘yoklarning o‘ziga xos xususiyatlari, yo‘l sharoitlarining xususiyatlari va h.k.) haqidagi ma‘lumotlar. LBM miqdorlariga nisbatan bu kabi ma‘lumotlar quyidagilarni aniqlashga imkon beradi:

- 1) LBM miqdori va uning sarfi bo‘yicha dastlabki ma‘lumotlar; LBMning kelib chiqish xususiyatlari (standart mahsulot yoki kustar mahsulot — qo‘lbola usulda yoki ixtiyoriy kompozitsiyada tayyorlangan);

- 2) komponentlarning turi va kelib chiqishi, ularning soni va nisbiy miqdori;

- 3) obyektlarni saqlash yoki foydalanish sharoitlari (masalan, boshqa turdagi materiallar saqlanayotgan binoda ochiq idishda bo‘yoq saqlanishi – natijada bu idishga begona komponentlar tushib qoladi yoki bo‘lmasa, bir bo‘yoqni ilgari boshqa turdagi bo‘yoq yoxud organik eritma (masalan, kerosin) saqlangan idishda saqlash va h.k.).

Lok-bo'yoq tabiatli modda izlarini shakllanishi mexanizmining tadqiqotlari bilan bog'liq diagnostik va situatsion (situalogik) vazifalarni hal qilishda, o'zaro ta'sirlashishda bo'lgan obyektlar soni va xususiyatlari, o'zaro ta'sirlashishning ketma-ketligi, obyektlarning o'zaro joylashishi va h.k. haqida ma'lumotlar talab etiladi. Masalan, transport vositasini jabrlanuvchi (piyoda) bilan KTH haqidagi savolni qo'yishda, ekspertga taqdim etilayotgan ish materiallarida o'zaro ta'sirlashishning mohiyati bo'yicha tergov tasmollari bayon qilingan bo'lishi lozim. Masalan: to'qnashuv yoki bosib o'tish holat mavjudligi yoki bo'lmasa kelgusida bosib o'tish bo'lgan to'qnashuv mavjudligi, to'qnashuv paytida TV va jabrlanuvchining holati va h.k. haqidagi ma'lumotlar. Bu kabi ma'lumotlarni ekspert transport vositasining ko'zdan kechirish bayonnomasidan, hodisa joyini ko'zdan kechirish bayonnomasidan, shuningdek, sud-tibbiy ekspertning xulosasidan (odam tanasidagi jarohatlar, ularning joylashishi va hosil bo'lish mexanizmi), sud-avtotexnik ekspertizasi xulosalaridan olish mumkin. Ko'plab vazifalarni samarali hal qilish uchun ekspert, tekshirilayotgan obyektning tekshirilayotgan hodisadan keyingi holati haqidagi ma'lumotlarga ham ega bo'lishi lozim.

Bu kabi ma'lumotlarga quyidagilar kiradi:

- tekshirilayotgan avtomobilning ta'mirlanganligi haqidagi ma'lumot (shikastlangan sohalarining to'g'rilanganligi, detallari yoki butun kuzovini bo'yalganligi yoki qayta bo'yalganligi);
- odamning LBM izlari mavjud bo'lgan kiyimlari tozalanganligi yoki yuvilganligi haqidagi ma'lumotlar;
- tadqiqotlar obyektlarini olish sharoitlari va ularni saqlash sharoitlari haqidagi ma'lumotlar;
- tadqiqot obyektlari bilan qandaydir tadqiqotlar o'tkazilganligi bo'yicha materiallar.

Ekspertizaga taqdim qilingan obyektlarga nisbatan ilgari qandaydir tadqiqotlar o'tkazilgan va ularning natijalari LBM, LBQ va BB kriminalistik ekspertizasiga oid tadqiqotlar uchun ahamiyatga ega bo'lsa, ekspert tegishli materiallarni so'rab olishi lozim. Bu kabi tadqiqotlarga masalan, sud-trasologiya ekspertizasi yoki sud-tibbiy ekspertizasi xulosalari kiradi. Bu materiallardagi ma'lumotlar LBQ zarrachalarining qatlamlanish izlarini, turli izlar orasidagi sababi aloqadorlikni hamda hodisaning boshqa sharoitlarini samarali aniqlashga imkon beradi.

Kompleks tadqiqotlarni tashkil qilish. Ekspertiza vazifalarining tabiatiga bog'liq ravishda LBM, LBQ va BB kriminalistik ekspertizasi ekspertlar komissiyasiga topshirilishi mumkin hamda komissiya tarkibi yuqoridagi vazifalar xususiyatdan kelib chiqib tashkil etiladi, komissiya a'zolari orasidan yetakchi

ekspert tayinlanadi (ekspertiza muassasasi rahbari tomonidan). LBM, LBQ va BBlar kriminalistik ekspertizasining klassifikatsion va identifikatsion vazifalarini hal qilish uchun ekspertlar komissiya tarkibiga murakkab instrumentalar metodlarni (IK-spektral tahlil, rentge tahlil, elektron mikroskopiya va boshqa.) yaxshi biladigan mutaxassislar kiritiladi. Bu kabi komissiyani LBM, LBQ va BBlar kriminalistik ekspertizasi sohasida maxsus bilimga ega mutaxassis boshqaradi.

Bittasi yoki har ikkisi bo'yalgan obyektlarning KTHni aniqlash bo'yicha vazifalarni hal qilish uchun esa LBM, LBQ va BBlar kriminalistik ekspertizasi sohasida maxsus bilimga ega mutaxassislar bilan bir qatorda, sud ekspertizalarining boshqa turlari bo'yicha mutaxassislar ham jalb etiladi. Shu sababli bunday hollarda kompleks ekspertizalar o'tkaziladi. Unda sud-trasologik yoki transport-trasologik ekspertizalar bo'yicha mutaxassisning ishtiroki majburiydir. Hodisa joyining moddiy elementlari hisoblangan materiallarning (moddalar) tabiatini inobatga olgan holda, yuqoridagi kabi komissiya tarkibi – tolali materiallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar, yoqilg'i-moylash, plastmassa, metallar, tuproq, o'simliklar va h.k. materiallarini tadqiqotlari sohasi bo'yicha mutaxassislar bilan kengaytirilishi mumkin. Bu holda yetakchi ekspert sifatida sud-trasologik yoki transport-trasologik ekspertizalar bo'yicha mutaxassis tayinlanadi.

Kompleks tadqiqotlarni o'tkazish umumiy metodik tushdagi bir qator talablarga rioya etishni nazarda tutadi:

1) barcha turdagi obyektlar va ularni tashkil qiluvchi moddalar haqidagi barcha turdagi ma'lumotlardan foydalanish;

2) agar o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari qo'yilgan savollarga ilmiy asoslangan qat'iy shaklda javob berish uchun yetarli bo'lsa, tadqiqotlar hajmini chegaralash mumkin;

3) agar KTHni aniqlash yoki identifikatsion qilish ekspertlar oldiga qo'yilgan savollarning mazmunini tashkil qilsa, ashyoviy dalillarning yagona kompleks tadqiqotlarini alohida tur ekspertizalarga (trasologik, tovarshunoslik) ajratish mumkin emas.

## 2. Tahliliy bosqich

Ekspertiza tadqiqotlarining bu bosqichida barcha tadqiqot obyektlari alohida-alohida tekshiriladi.

Ashyoviy dalillar tashqi ko'zdan kechiriladi va bu harakatlarni ekspertiza tadqiqotlari tahliliy (va taqqoslash) bosqichining boshlanishi deb hisoblash mumkin. Obyektlarni ko'zdan kechirishning asosiy vazifalari quyidagilar:

- buyumlar sirtida LBM va LBQlarning qatlamli tushgan yoki ko'chgan izlari (shuningdek, begona izlar) mavjudligini, izlarning hosil bo'lish mexanizmi va obyektlarning o'zaro ta'sirlashish mexanizmini aniqlash;

- tekshirilayotgan obyektlarning tashqi belgilarini qayd etish (LBM rangi, soni, shakli o'lchamlari va izlarning joylashishi hamda LBM yoki ularning zarrachalari yordamida hosil bo'lgan boshqa xususiyatlari;

- LBQ zarrachalari va qatlamlanish izlarining identifikatsiya uchun yaroqliligini aniqlash.

LBM va LBQlarning rangi, morfologik va substansional xususiyatlarini o'rganish organoleptik, shuningdek kimyoviy va tahliliy texnikaning boshqa turli instrumental metodlari yordamida bajariladi. Tegishli metodlarni va ularning qo'llash ketma-ketligini tanlash uchun quyidagi qoidalar mavjud:

1) avvalo tadqiqot obyektini umuman o'zgartirmaydigan yoki buzmaydigan metodlar (masalan, optik mikroskopiya, mikrofoto-suratga olish, lyuminessent tahlil) qo'llaniladi;

2) moddalarning organik miqdorini tahlillari uchun mikrotahliliy metodlar (kimyoviy mikrotahlil, mikrospektrofotometriya, mikrozonli spektral yoki lazerli-mikrospektral tahlil va h.k.) qo'llaniladi, agar qo'llaniladigan metodlarning sezgirligi bir xil bo'lsa, eng ko'p ma'lumot bera oladigani qo'llaniladi;

3) tadqiqot obyektlarini o'zgartiradigan yoki ko'p sarf bo'lishiga olib keladigan metodlar eng oxirgi navbatda qo'llaniladi;

4) metodlarni qo'llash bo'yicha bir xil yoki teng sharoitlarda esa, tajribalarda sinalgan, shuningdek natijalarini ko'rgazmali tarzda ilova qilish mumkin bo'lgan metodlar qo'llaniladi.

LBM, LBQ va BBning kriminalistik ekspertizalarida – ushbu ekspertizaning metodikasini shakllantiradigan bir qator metodlar kompleksi qo'llaniladi. Sud-ekspertiza tadqiqotlari ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchi yo'nalish – obyektlarni rangi va morfologik belgilarini, kelgusida natijalarini qayd etish bilan tadqiqotlar; ikkinchi yo'nalish — obyektlarning kimyoviy tarkibini aniqlash.

2.1. LBM, LBQ va BBning dastlabki tadqiqotlari. Tezkor-qidiruv tadbirlari yoki tergov harakatlari jarayonida ko'p miqdordagi bo'yalgan buyumlar – jinoiy tajovuz obyektlari, LBM va LBQning ajralgan yoki tushib qolgan qatlamlari, LBQning alohida zarrachalari aniqlanadi.

Bu kabi obyektlarning dastlabki tadqiqotlarida buyumlarga LBQni surtish (hosil qilish) usullari, bu obyektlarni bo'yash yoki qayta bo'yash holati va usullari, buyumning dastlabki rangi, LBQ izlarining hosil bo'lish mexanizmi, aniqlangan LBQ zarrachalarini BBdan ajralib qolishi holati haqidagi ma'lumotlarni olish mumkin. Bu kabi dastlabki ma'lumotlar kelgusida tergov tasmollarni ilgari surish va jinoyatni izlari sovimasdan ochishda amaliy yordam berishi mumkin.

Boshqa turdagi eksperizalarga nisbatan LBM, LBQ va BBning kriminalistik ekspertizasida dastlabki tadqiqotlar juda samarali bo'lishi mumkin, chunki,

birinchidan, LBQning alohida mikrozarra chasi - o'zi ajralib ketgan bo'yalgan buyum haqida yetarli ma'lumot (bu aynan qanday buyum, u qanday usulda bo'yalganligi, necha marta qayta bo'yalgan, aynan qanday sharoitlarda bo'yalgan va ishlatilgan, mikrozarra chani bu buyumdan ajralib ketish mexanizmi va h.k.) bera olishi mumkin; ikkinchidan, bu kabi ma'lumotlar mazkur mikrozarra chani lupa yoki mikroskop yordamida tadqiq qilish natijasida olinadi. Ta'kidlash joizki, optik mikroskoplar LBM, LBQ va BBning kriminalistik ekspertizasi jarayonidagi dastlabki va hatto identifikatsion tadqiqotlar jarayonida qo'llaniladigan eng asosiy va ko'p ma'lumotlar bera oladigan metod hisoblanadi.

Yuqoridagi ta'kidlanganlarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, LBM, LBQ va BBning dastlabki tadqiqotlari jarayonida hal etiladigan vazifalar quyidagilardan iborat:

1) bo'yalgan buyumni dastlabki tadqiqotlari natijalariga ko'ra:

- bo'yalgan buyumni (masalan, transport vositasi) bo'yash usuli, uning bo'yalganlik yoki qayta bo'yalganlik holati, buyumning dastlabki rangi haqidagi masalani taxminiy hal qilish;

- Bo'yalgan buyumdan LBQ qatlamini ajralib qolishi yoki DBQ qatlamli izini hosil bo'lish mexanizmini aniqlash;

2) LBQ parchalariga o'xshash zarrachalarni dastlabki tadqiqotlari natijalariga ko'ra:

- aniqlangan zarrachalarni LBQga mansubligini aniqlash;

- LBQ zarrachalari ajralib qolgan buyumni mo'ljallangan maqsadini, bo'yash va qayta bo'yash usulini, dastlabki rangini, LBQ zarrachasini BBdan ajralish mexanizmini aniqlash, bo'yalgan buyum haqida turli diagnostik ma'lumotlar olish;

3) LBQ zarrachalari va bo'yalgan buyumning dastlabki tadqiqotlari natijalariga ko'ra:

- aniqlangan LBQ zarrachalari aynan qanday BBdan ajralib qolganligi va aynan qanday BBdan ajralib ketolmasligini aniqlash.

Bo'yalgan buyumlarning dastlabki tadqiqotlari. Aniq bir buyumlar LBQning dastlabki tadqiqotlari - bo'yalgan buyumning bo'yalish va qayta bo'yalish holati, bo'yash usullari, dastlabki rangini aniqlash, bu buyumni taxminiy ishlatish vaqtini aniqlash bo'yicha kompleks masalalarni hal qilishda o'tkaziladi. Bu savollar odatda, transport vositalarini o'g'irlash bilan bog'liq jinoyat ishlarini tergov qilishda vujudga keladi.

Buyumni bo'yash usulini aniqlash uning sirtini yetarlicha (kunduzgi) yorug'lik ostida ko'zdan kechirish bilan boshlanadi. Bunda LBQning fakturasi (LBQning tashqi qatlami tuzilishi tekshiriladi, bu qatlam silliqqligi, rel'efi va yaltiroqligi bilan ajralib turadi) baholanadi, LBQ qatlamining zichligi, yaltiroqligi,

rangi va tovlanishi bo'yicha bir xilligi aniqlanadi. So'ng LBQ namunalari olinadi. Namunalarning talab darajasida bo'lishini ta'minlash maqsadida, tadqiqot obyektining bo'yalgan qismi yoki detalining bir necha (beshtagacha) sohasidan qirindilar olinadi hamda bunda LBQning imkoni boricha qalinroq qatlamini olishga harakat qilinadi. Bunday qirindi-namunada LBQning barcha qatlamlari mavjud bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Obyektning bir soxasidan o'lchami 10 mm<sup>2</sup> gacha bo'lgan namuna olish yetarli bo'ladi.

Namunalarni olishda LBQning quyidagi xususiyatlari baholanadi:

- adgeziya – qatlamlarni o'zaro va taglik sirti bilan birikish darajasi - qoplamaning sinishi, uning qatlamlanish qobiliyati bilan aniqlanadi;
- qattiqligi – qoplamaning, o'ziga boshqa qattiq buyum ta'sir qilishiga nisbatan qarshiligi - qoplamaning bosib ko'rish yoki qattiq buyum bilan tirnab ko'rib aniqlanishi mumkin;
- elastikligi – LBQni yorilishsiz, sinishsiz egilishi qobiliyati - qoplama yoki uning alohida qatlamlarini egiluvchanligi, preparal asboblari yordamida egilishga nisbatan egiluvchanligini bilan aniqlanadi;
- mo'rtligi – LBQning uqalanish, kam ta'sir ko'rsatilganda ham sinib ketishlari.

Sud ekspertiza amaliyotida yuqorida keltirilgan xususiyatlarni uch darajasini farqlash tavsiya qilingan – yuqori, o'rtacha va past.

So'ng olingan namunalarni mikroskop ostida, qaytuvchi nurlarda va 90 martagacha kattalashtirib tekshiriladi. LBQ namunalarining ichki va tashqi sirtlari vizual tartibda ya'ni ichki morfologiyasi esa mikroskop yordamida tahlil qilinadi. Buning uchun namuna mikroskopning buyum stolchasiga yon kesimi perpendikulyar qilib o'rnatiladi. Namunani bu kabi o'rnatishda plastilindan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki namunalarni ifloslanib qolishi mumkin.